

SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘RGANISH. 6-SINF DARSLIGI ASOSIDA

Choriyeva Sabinabonu

*Buxoro davlat Pedagogika instituti
“Tillar” fakulteti talabasi*

Ilmiy rahbar: S.X. Maxmudova, f.f.f.d. (PhD), dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8183887>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Morfologiya so‘z turkumiga oid Sifatning 6-sinf darsligi bo‘yicha qanday o‘rganilishi tahlil qilingan. Sifatga oid mashqlar va topshiriqlar izohlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sifat, Sintaksis, Morfologiya, Orfografiya, so‘z yasovchi qo‘shimcha, matn, daraja shakllari

Tilshunoslikning eng katta bo‘limlaridan biri bu Morfologiyadir. U o‘z doirasiga barcha so‘z turkumlarini qamrashi va biroz murakkabligi jihatidan maktab darsliklarida uning ichki qismlari alohida o‘rganiladi. Ulardan biri bu sifat so‘z turkumidir.

6-sinf darsligida sifat so‘z turkumi keng va tushunarli qilib o‘quvchilarga taqdim etilgan. Unda sifat darajalaridan tortib, sifatning matnda qanday o‘rinlarda kelish holatigacha ko‘rsatib berilgan. Quyida sifat bilan aloqador mashqlar va matnlarni ko‘rib chiqamiz.

Darslikda ”Amir” nomli matn keltirilgan va quyidagi topshiriq berilgan.⁸

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadval asosida so‘z turkumlariga ajratib, daftaringizga ko‘chirib oling.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l
?	?	?	?	?

Berilgan so‘zlarning ma‘nodoshlarini yozing.

kasal ranjimoq sog‘aymoq itoat
amir dam olmoq jazm qilmoq

Ya‘ni matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni turkumlarga ajratish kerak. Bundan oldingi sinflarda so‘z turkumlari o‘tilganligi sababli, kitobning ilk mavzularidanoq bular takrorlangan. (28-bet).

Keyingi sifat bilan bog‘liq mashqlar “Global isish” bo‘limida berilgan. (33-bet)

⁸ 6-sinf ona tili. Toshkent-2022. 27-bet



GLOBAL ISISH

Bu mavzuda o'rganamiz

• ekologik muammolar va ularga yechim izlash • grafik ko'rinishdagi axborotlarni o'qib tushunish • dalil va tafsilotlar bilan axborot matni yozish • ko'rsatish olmoshlari • **sifat** darajalari • atoqli otlar imlosi.



Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Ularda qanday jarayonlar aks etgan?

Va sifatlarga daraja qo'shimchalarini qo'shib gap tuzish, topshirig'i berilgan. Bu sifat darajalari bilan bog'liq ilk bilimlar.



Global isish, iqlim bilan bog'liq so'zlarni yozing.

Namuna tabiat, qurg'oqchilik, ...

Berilgan birikma tarkibidagi **sifatlarni** aniqlang. Ularga **-roq** qo'shimchasi hamda **juda, eng** kabi so'zlardan mosini qo'shib, yozing.

zaharli gaz

nam havo

sho'r tuproq

issiq harorat

xavfli qurg'oqchilik

katta muzlik

O'quvchilar birikmalar ichidan sifatlarni aniqlashi va uni darajalashi kerak bo'ladi.(34-bet)



"Iqlim o'zgarishi va global isish" mavzusida axborot matni yozing.



Bo'sh o'rinlarni kerakli so'zlar bilan to'ldirib, gaplarni o'qing. Berilgan gaplarda **sifatning** qanday darajalari qo'llanayotganini aniqlang va ularni izohlang.

Qo'yish uchun so'zlar: eng qulay, eng issiq, pastroq, eng past, yuqoriroq.

Yerdagi ... havo harorati 1983-yil 21-iyulda Antarktidaning "Vostok" stansiyasida qayd etilgan, o'shanda maxsus termometr $-89,2\text{ }^{\circ}\text{C}$ ni ko'rsatgan. Bu meteorologik kuzatuvlar tarixidagi eng past haroratdir.

... havo harorati 1922-yilda Liviyada qayd etilgan. Unga ko'ra, Yerdagi eng yuqori harorat $+57,8\text{ }^{\circ}\text{C}$ deb belgilangan.

Inson uchun ... harorat $+20...+25$ daraja.

Yer yuzidagi insonlar o'rtacha havo harorati -50 va $+50$ daraja oraliqdagi sharoitda yashay olishi mumkin, lekin ayrim hududdagi insonlar -50 darajadan ... va $+50$ darajadan ... ko'rsatkichlarga ega sharoitda ham jon saqlay oladilar.

Iqlim o'zgarishi haqida matn berilib, undan to'g'ri xulosa chiqarish so'ralgan. Va shu mavzuga xos kichik parchalar sifat o'rinlari tushurib berilgan.

O'quvchi kerakli sifatni qo'yib daftariga ko'chirishi kerak. Bu mashq orqali o'quvchi ilmiy bilimlarga ega bo'ladi, fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va sifat darajalarini o'rganadi.

O'quvchi sifatning barcha tomonlarini o'z saviyasiga oid holda mukammal o'rganadi. Quyidagi topshiriqqa e'tibor beradigan bo'lsak, sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning qo'llanilishi o'rgatilgan. Bundan tashqari o'quvchi topshiriqni bajarar ekan, so'zlarga to'g'ri qo'shimcha tanlashni o'rganadi.



Quyidagi so'z va qo'shimchalar ishtirokida namunadagi kabi **sifatlar** hosil qiling.

Namuna rang + li, eksport + bop.

So'zlar	Qo'shimchalar
hunar	-bop
bozor	-gi
quvvat	-dor
qadim	-chan
xaridor	-mand
pul	ser-
talab	ba-
daromad	-gir

Bu mashqda sifatlarni so'z birikmasi holida keltirish, ularni qaysi so'z turkumlari bilan bog'lash mumkinligi o'rgatilgan. Bu bilan ular Sifat va sintaksis aloqadorlikni o'rganadi.



Berilgan so'zlarni mos sifatlar bilan biriktirib, ko'chiring. Ushbu otlarga yana qanday sifatlarni biriktirish mumkinligini misollar bilan ko'rsatib bering.

Otlar	Sifatlar
ko'rsatuv	keng
teleboshlovchi	musiqiy
yo'l	ko'ngilochar
kasb	topqir
mutaxassis	og'ir
odam	obod
qishloq	dangasa
kishi	yaxshi
ko'rsatuv	qadrdon



Yuqorida berilgan **sifat**larni shaxs, narsa yoki o'rin-joyning belgisini bildirib kelayotganiga ko'ra ushbu jadvalga yozing.

Shaxsning belgisi	Narsaning belgisi	O'rin-joy belgisi
?	?	?

Darslikda sifat bo'yicha barcha turkum aloqadorligi o'rgatilgan. Bolalar uchun qiziqarli topshiriqlar bilan birga, ularning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan ilmiy va faktli matnlar ham berib o'tilgan. Yuqorida bu so'z turkumining daraja, yasovchi,

Sintaksis bilan aloqador mashqalaridan misollar berib o'tdim. Quyida esa sifatlarning Orfografiya bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

To'g'ri yozilgan qo'shma sifatlarni ko'chiring.

mehnatsevar – mehnat sevar
jon kuyar – jonkuyar
kam xarj – kamxarj

xushmuomaia – xush muomaia
ish yoqmas – ishyoqmas
xaridortalab – xaridor talab



Biror mavzuda kirish muammo va tahlil xulosa qismlaridan iborat maqola yozing

Quyidagi mashqda so'z turkumini matn ichidan ajratib olish sharti qo'yilgan.



Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Mutaxassislar iqlim o'zgarishining asosiy omili issiqxona effekti ekanini ta'kidlashadi. Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi "issiqxona effekti" deyiladi. Ya'ni quyoshdan kelgan nurni Yer ham atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga zavodlardan chiqarilgan turli gazlarga yutiladi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me'yoridan ortiq qiziydi va iqlimga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi.

Natijada sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida farq kam bo'ladi. Ya'ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta'sirida qoladi. Ushbu sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi.



1. Matnda iqlim o'zgarishiga ta'sir qiluvchi qaysi omil haqida so'z boradi?
Bu qanday sodir bo'ladi?
2. Nima uchun matnda "Yer" so'zi bosh harf bilan yozilgan?
3. Matnda qo'llangan sifatlarni ayting.



Yuqorida 6-sinf darsligida sifat mavzusidagi topshiriqlardan misollar bilan tanishdik. Barcha topshiriqlarda sifat haqida nazariy ma'lumotlar, ularning darajalanishi, yasovchi qo'shimchalarni olishi, boshqa so'z turkumlari bilan aloqadorligi o'rgatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 6-sinf Ona tili darsligi. Toshkent-2022(Yangi nashr)